

O'XSHATISHDA HIS-TUYG'ULAR IFODALANISHI VA UNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

*Umurkulov Zafar Bekpo'latovich, Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

THE EXPRESSION OF EMOTIONS IN SIMILARITY AND ITS IMPACT ON THE HUMAN PSYCHE

*Umurkulov Zafar Bekpulatovich, Associate Professor Termez State
University, Doctor of Philology (PhD)*

ВЫРАЖЕНИЕ ЧУВСТВ В СРАВНЕНИИ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКУЮ ПСИХИКУ

*Умуркулов Зафар Бекпулатович, доцент Термезского
государственного университета, доктор филологических наук
(PhD)*



[https://orcid.org/0009-
0002-9890-064X](https://orcid.org/0009-0002-9890-064X)
e-mail:
umurkuloff@gmail.com

Annotatsiya: Badiiy matnni tadqiq qilish, unda inson ruhiy holatining ifodalanishi masalalarini o'rghanish tilshunoslik yo'naliishlarining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: obrazlilik, ta'sirchanlik, o'xshatish, his-tuyg'u ifodalash, ijobiy va salbiy hissiyotlar.

Abstract: The study of literary text, the study of the expression of a person's mental state in it, plays an important role in the development of linguistics.

Key words: imagery, emotionality, simile, emotional expression, positive and negative emotions.

Аннотация: Исследование художественного текста, изучение вопросов выражения в нем психического состояния человека играет важную роль в развитии направлений языкоznания.

Ключевые слова: образность, эмоциональность, сравнение, эмоциональное выражение, положительные и отрицательные эмоции.

KIRISH. Inson his-tuyg'ularining ifodalani-shi bilan qiziqish qadim zamonlardan tadtiqotchi-larning diqqatini jalg etib kelgan. Keyingi yillarda ushbu hodisani antropoligistik, psixologik va ling-vistik jihatdan o'rghanishga ko'p e'tibor qaratilmoq-da. Inson his-tuyg'ularini ifodalashning verbal va noverbal usullari mavjud bo'lib, tilda his-tuyg'ular ifodalishining ham turli usullari mavjud. Chunon-chi, tilda his-tuyg'u qo'zg'atuvchi maxsus lug'aviy vositalar mavjud bo'lganidek, fonetik, morfologik, sintaktik birliklar orqali ham his-tuyg'ular hosil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'xshatishlar orqali fikrlash jarayoni murakkab jarayon bo'lib, o'xshatish insonning olamga munosabati, borliqdagi turli narsa-hodisalar-ning bir-biriga biror jihat bilan aloqadorligini sezgi a'zolari yoki tafakkur asosida anglash natijasining

samarasidir. Lug'aviy nominativlik nuqtayi nazari-dan o'xshatishlar chegarasiz. Professor D.Xudoyberganova matnda shaxs ruhiy holatining ifodalanishi haqida fikr yuritar ekan, tilning inson his-tuyg'ularini ifodalashining samarali usullaridan ekanligini e'tirof etadi [3,65]. Tadqiqotchi inson ruhiy holatini ifodalashda o'xshatishlar ham muhim o'rin tutishiga diqqatni qaratadi. Xususan, holat bildiruvchi o'xshatishlarning ta'sirchan, obrazliliги va lingvopoetik jihatdan alohida ajralib turishi turg'un o'xshatishlar misolida ko'rsatib o'tilgan. Olima ruhiy holat ifodalovchi matnlarda hissiyotning xarakteri matn tuzilishi uchun, matnda qo'lla-niladigan lingvistik birliklarning tanlanishi uchun asos bo'lishini to'g'ri izohlab o'tgan[3,69-70]. Darhaqiqat, xursandchilik, his-tuyg'uni ifodalashda shu mazmunga mos lingvistik vositalardan foyda-lanilgan holda, uyalish his-tuyg'usini ifodalovchi

matnlarda bu xildagi til birliklaridan foydalanib bo‘lmaydi.

O‘xshatishlarda his-tuyg‘ularning ifodalani-
shi o‘zbek tilshunosligida maxsus o‘rganilmagan.
O‘xshatishlarda ruhiy holatning ifodalanishi haqida
tadqiqotchi D.Ergashevaning dissertatsiyasida inson
ruhiy holatini ifodalovchi shaxs nomi bilan bog‘liq
o‘xshatishlar, hayvon nomi bilan bog‘liq o‘xshatish-
lar, tabiiy hodisalar bilan bog‘liq o‘xshatishlar,
milliy-madaniy realiyalar bilan bog‘liq o‘xsha-
tishlar, o‘simlik nomlari, inson tana a’zolari bilan
bog‘liq, oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq
o‘xshatishlarga misollar keltirilgan va asoslari
umumlashtirilgan[1].

MUHOKAMA. Tilda mavjud bo‘lgan
barcha ma’nodagi so‘zlar o‘xshatish uchun yoki
etalon bo‘la oladi. Biroq barcha o‘xshatishlarda ham
real voqelik ifoda etilavermaydi, aksincha, matn
yaratuvchisining turli hissiyotlari ham
o‘xshatishlarni hosil qilish uchun xizmat qiladi.
O‘xshatish konstruksiyalni ifodalarda o‘xshatish asosi
va o‘xshatish etalonining tayanch o‘xhash belgi
jihatidan mos kelishi matn yaratuvchisining
yaratuvchanlik qobiliyatiga ham bog‘liq.
O‘xshatishlar sezgi a’zolarining faoliyati va tafakkur
tarzining mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Shunga
ko‘ra o‘xshatishlar aniq va abstrakt o‘xshatishlarga
ajratilgan holda talqin qilinadi[2.25-27]. Aniq
o‘xshatishlar tabiat va jamiyatdagi real predmetlar
orasidagi o‘xhashlik asosida vujudga keladi.
Ulardagi o‘xhash belgi barchaga sezgi a’zolari
orqali his qilinadigan belgilari bo‘lib, hamma
tomonidan anglanadi. Biroq o‘xshatishli
konstruksiylar tuzilishida murakkabliklar ham
mavjudki, o‘xhatilayotgan predmetlar orasidagi
o‘xhash belgi mavjudligi hamma predmetlarda ham
ochiq bo‘lmaydi. Ko‘pgina o‘xshatishli
konstruksiyalarda o‘xshatish uchun asos bo‘ladigan
muayyan belgi aqliy faoliyat orqali anglangan holda
ifodalangan bo‘ladi. Masalan, “*Suddan so‘ng u yoq
- bu yoqda tartibsiz qolib ketgan kursilar,
bozorchilarning karvonsaroyda bog‘lagan otlari
singari, bir-birlariga teskari evrilganlar*”
(Cho‘pon. “Kecha va kunduz”). Ushbu gapda
o‘xshatish hosil qilish uchun ishtirok etgan
predmetlar – kursilar va otlarning biror belgi
jihatidan bir-biriga o‘xhashligi mavjud emas.
Shunga ko‘ra ushbu predmetlarni bir-biriga
o‘xshatish hammaning ham xayoliga kelavermaydi.
Suddan so‘ng odamlar o‘rnidan turib ketgandan

keyingi stullarning holati esa, karvonsaroyda bog‘lab
ketilgan otlarning holatiga o‘xshaydi. Ushbu
holatlarni anglash va uni bir-biriga o‘xshatish esa
topqirlikni, kuzatuvchanlikni, aqliy faoliyatni taqozo
etadi. Hayotdan, jamiyatdan turli narsa-hodisalardan
oligan taassurotlar ham inson uchun o‘xshatish
hosil qilinishiga olib keladi. Bunda inson narsa va
hodisalarda tafakkur asosida o‘xhash belgi yaratadi
yoki insonning tasavvurida bir narsa ikkinchisiga
o‘xshatiladi. O‘xshatishning bu turlari his-
tuyg‘ularga boy bo‘ladi. O‘zbek mumtoz
manbalarida ko‘p uchraydigan yor qomatining sarv
daraxtiga o‘xshatilishi tasvirlash, tavsiflash
xarakteriga ega bo‘lib, o‘zining tik qomati bilan sarv
daraxti kishilar ongida go‘zallik timsoli sifatida
o‘rnashib qoladi. Suyukli yorning ixcham, tik qomati
ham tasavvurlarimizda chiroylilik belgisi
hisoblanadi. Shunga ko‘ra, yorning qomati sarv
daraxtiga o‘xshatiladi. O‘xshatishlar tasvirlash,
ta’riflash xarakteridagi ifoda usuli. O‘xshatishning
tasviriy vositaligi shu xususiyati bilan belgilanadi.
O‘xshatishlarning ta’sir kuchi o‘xhatilayotgan
obyektlarning xarakteriga ham bog‘liq.
O‘xhatilayotgan obyektlar turli predmetlardan
tashkil topgan bo‘lsa, obyektiv olamda bir-biriga
mos kelmaydigan predmetlardan iborat bo‘lsa,
ko‘pincha, ulardagi o‘xhashlik tasavvurlar asosida
hosil qilinadi, bu xildagi o‘xshatishlar insonning turli
his-tuyg‘ulari ta’sirida yaratiladi va adresantning
his-tuyg‘ulari qo‘zg‘alishiga olib keladi.

NATIJALAR. His-tuyg‘ularni ifodalashga
ko‘ra o‘xshatishlarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Tabiiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi
o‘xshatishlar.

2. Hayotdagi voqe-a-hodisalar ta’siridagi
tug‘ilgan his-tuyg‘ularni ifodalovchi o‘xshatishlar.

Inson his-tuyg‘ulari insonning tabiatini bilan
bog‘liq bo‘lgan holda namoyon bo‘lib, uning
psixologik jihatlarini ko‘rsatsa, bunday his-tuyg‘ular
tabiiy his-tuyg‘ular hisoblanadi. Tabiiy his-tuyg‘ular
ma’lum ma’noda insonni boshqarib boradi. Shu his-
tuyg‘ular orqali inson o‘z-o‘zini ifoda etadi. Tabiiy
his-tuyg‘ular insonning ma’naviy olamini ham
namoyon qiluvchi vosita bo‘lib, kishi ruhiyatida
yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hissiy holatni inson
ongli ravishda boshqarib boradi. Insonda mavjud
axloqiy, ma’naviy nomaqbul his-tuyg‘ularning zohir
bo‘lishiga to‘sinqlik qiladi. Tabiiy his-tuyg‘ular
kutilmaganda, to‘satdan paydo bo‘ladi. Insonning
sevinishi, achinishi mumkin bo‘lgan narsani his

etganda achinish lozimligi tabiiy his-tuyg‘udir. Tabiiy his-tuyg‘ular biror narsani o‘ylaganda, biror voqeа-xabarni eslaganda, tabiatdagi turli hodisalarni kuzatganda, olamning turli manzarasini his etganda, shuningdek, insoniy munosabatlar kuzatilganda paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ulardir. Masalan, bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishining do‘pposlanayotganligini ko‘rgan odamda do‘pposlanayotgan kishiga nisbatan achinish tuyg‘usi paydo bo‘lsa, bir paytning o‘zida do‘ppostlayotgan kishiga nisbatan nafrat tuyg‘usi yuzaga keladi. Agar do‘pposlanayotgan kishiga e’tibor qaratilmasa, uning holati tasavvur etilmasa his-tuyg‘ular ham vujudga kelmaydi. Shunday ekan, his-tuyg‘ular idrokning natijasi bo‘lib, tasavvur qilish va fikr yuritish asosida paydo bo‘ladi. Odatda his-tuyg‘ular ijobiy va salbiy hissiyotlarga ajratiladi. Masalan, jamiyat uchun, inson uchun zararli voqealar natijasida hosil bo‘ladigan kuyinish, achinish, g‘azablanish hissiyotlari yoki ijtimoiy hayotdan zavqlanish, yomon odatlar va yoqimsiz holatlardan norozilik kayfiyatining vujudga kelishi kabi hissiyotlar ijobiy hissiyotlar bo‘lsa, turli noxush holatlar kayfiyat buzilishiga sabab bo‘ladigan voqeahodisalar xursandchilik tug‘diradigan hissiyotlar salbiy hissiyotlardir. Inson hayotida sodir bo‘lishi tabiiy bo‘lgan hissiyotlarning har ikki turi ham faoliyatda, jumladan, nutqiylar faoliyatga ko‘chadi. O‘xshatishli konstruksiyalar inson tevarak-atrofidagi voqealar tufayli vujudga keladigan his-tuyg‘ularni ifodalovchi muhim lingvistik vositadir. Masalan, “*Tongdek tiniq, ertaklardek go‘zal. Hamma narsa sehrli edi. Yoz pallasi cho‘miladigan turnaning ko‘zidek ko‘llar ham*” (O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”) gapida uchta o‘xshatish qo‘llanilgan bo‘lib, tong, ertak va ko‘lning so‘zlovchi tomonidan obrazi yaratilgan. Ushbu tasvir kishida zavqlanish hissiyotini vujudga keltirganligi uchun ijobiy hissiyotli o‘xshatishdir. Noxush voqealarni bayon qilish asosida sodir bo‘ladigan o‘xshatishlar salbiy munosabatlari tuyg‘ularning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, “*Daryo bilan shahar oralig‘ini to‘ldirib vahimali qora bulutga o‘xshab kelayotgan Ibrohim Lodining qo‘smini qarshisida harakatsiz tek turib kutish og‘ir edi*” (P.Qodirov. “Yulduzli tunlar”). Ushbu gapda hind sarkardasi Ibrohim Lodining daryo bilan shahar oralig‘ini to‘ldirib kelayotgan qo‘smini qora bulutga qiyoslangan. Mazkur gapda qo‘smini qora bulutga qiyoslanishi tasavvur qilish natijasidagi o‘xshatish bo‘lib,

subyektiv munosabatning ta’siri o‘laroq salbiy tuyg‘ularni ifodalagan va nutq qaratilgan shaxsda ham salbiy munosabatlari hissiyotlarni tug‘diradi.

Tabiiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi o‘xshatishlar asosan tasavvur o‘xshatishlari bo‘lib, bu kabi o‘xshatishlarda kutilmaganda, juda tez vaqtida bo‘lgan hissiyotlar ifodalananadi. Tez paydo bo‘ladigan hissiyotlar tabiatdan zavqlanganda, biror voqeadan xursand yoki xafa bo‘lganda vujudga keladi. Masalan, “*Peshinga yaqin oldinda ipakday mayin pushti rang bog‘larga ko‘milgan Damashq qishlog‘i ko‘rindi. Damashqdan keyin, to Samarcandga yetguncha bog‘lar bir-biriga tutashib ketar, go‘yo butun olam ulkan gulxan orasida lovullab yonardi*” (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”). Ushbu matnda ikkita o‘xshatish mavjud bo‘lib, qishloq atrofidagi bog‘lar serjiloligi, tabiatning go‘zalligiga ko‘ra ipakka o‘xshatilsa, ushbu bir-biriga tutashib ketgan bog‘larning kuzdag‘i, kechki manzarasi lovullab yonayotgan gulxanga o‘xshatilgan. Darhaqiqat, tutashib ketgan bog‘larning kech kuzgi ko‘rinishi, umrini yashab bo‘lib, qip-qizil rangga kirgan daraxt barglarining kuzatilishi tabiiy hissiyot tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu hissiyotni ifodalash va mazkur ko‘rinishdan boshqalarni ham zavqlantirish mahorat masalasidir. Ehtimol, kuzda qip-qizil barg bilan qoplangan bog‘lar boshqa biror narsaga, aytaylik, qizil to‘sakka qiyoslanganda o‘quvchida hissiyot qo‘zg‘atmas edi. Biroq, ushbu manzaraning lovullab yonayotgan ulkan gulxanga qiyoshlanishi o‘quvchini befarq qoldirmaydi. O‘xshatishga asoslangan ushbu tasvir ifodasiga ko‘ra ta’sirchan bo‘lganligi uchun ham zavqlanish hissini vujudga keltiradi.

“*Mavlono Fazliddin orqasiga bog‘langan qo‘llarini beliga bosib, bilagining og‘rig‘ini to‘xtatmoqchi bo‘lar, lekin og‘riq pasayish o‘rniga tobora zo‘rayar edi. Bu hali birgina cho‘qmorning zarbi. Ertaga uning ustiga do‘lday yog‘iladigan toshlarning og‘rig‘i qanchalik dahshatli bo‘larkin? Mavlono buni ko‘z oldiga keltirganda eti junjikib, o‘rnidan turib ketdi. Go‘yo u hozir hibxonada emas, bir-biriga qarab qulayotgan ikki tog‘ning oralig‘ida turibdi-yu, endi har ikki tomonidan uchib tushgan qoyalar uni ezib majaqlashi kerak*” (P.Qodirov. “Bobur”). “Qo‘rquv”, “Vahimaga tushish” hissiyoti ifodalangan ushbu o‘xshatishli konstruksiyada ham to‘satdan paydo bo‘lgan hissiyot ifodalangan. Qo‘rquv hissiyotining paydo bo‘lishida cho‘qmor

bilan zarba berilgan qo‘ldagi og‘riq sabab bo‘lgan. Cho‘qmor zarbi bilan do‘lday yog‘iladigan toshlarning zARBini o‘zida his etgan Mavlono Fazliddin o‘zini qulayotgan ikki tog‘ orasida his etadi va vahimaga tushadi. Tabiiy hissiyotlar insonning tabiatiga ham bog‘liq bo‘lib, kimdadir turli his-tuyg‘ularni paydo qiladigan voqeahodisalar, manzaralar boshqa bir kishiga umuman ta’sir qilmasligi mumkin.

Turli his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishida hayotda yuz berib turadigan voqeahodisalarning ham muhim o‘rni bor. Kishi hayotda har xil kishilar, ularning xatti-harakatlariga, shuningdek, turli emotsiyal kechinmalarini vujudga keltiradigan holatlarga duch keladi. Bunday holatlar ham kishiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Masalan, ushbu keltirilayotgan o‘xhatishli matnda inson ruhiyatiga qattiq ta’sir ko‘rsatadigan voqeadan keyingi ruhiy holat o‘z ifodasini topgan: “*So‘fining tanlariga birdaniga o‘t tushganday bo‘ldi. Butun vujudi qizigan tandirday tobiga kelgan edi. Qo‘llari ixtiyorsiz balandga ko‘tarildi, mushtlari o‘z-o‘zicha tugumlandi. Bu musht pirning boshiga tushmoqchi edi. Faqat qarshidagi kim? Pir! Eshon! Eshon! Eshonbobo! Yo‘q, unga qo‘l ko‘tarib bo‘lmaydi. Yana bir onda So‘fi suvday suyuldi, qorday eridi, oriyat oyoqlari bilan omonat yerni bosib, tashqariga chiqdi*” (Cho‘pon. “Kecha va kunduz”). Mazkur matndagi ifoda hissiyotlarning vujudga kelishi jihatidan xarakterli. Unda ham salbiy, ham ijobji hissityolar o‘xhatish konstruksiyalari orqali voqelanib, e’tiqod va manfaatdorlik bilan bog‘langanlik natijasida paydo bo‘lgan. So‘fi qizining achchiq qismatini eshitgach taniga o‘t tutashganday bo‘ladi, uning boshiga ushbu kunni solgan pirining boshiga musht tushurmoqchi bo‘ladi, shunda uning qalbidagi ikkinchi hissiyot bosh ko‘taradi. Pirga qo‘l ko‘tarib bo‘lmaydi. Bu matnda o‘xhatishlar ikki xil hissiyotni ifodalagan. Birinchi o‘xhatish konstruksiyada (vujudi qizigan tandirday) bo‘lib o‘tgan mudhish voqeadan xabar topgan So‘fining qahr-u g‘azabi ifodalansa, ikkinchi o‘xhatish konstruksiyasi (suvday suyulish, qorday erish) So‘fida mavjud bo‘lgan tabiiy hissiyot, ya’ni pirga qo‘l ko‘tarib bo‘lmaslik hissiyotini esga soladi va bu hissiyot oldida uning ojiz ekanligi o‘z ifodasini topadi.

Tabiiy hissiyotning tug‘ilishi idrok etish, tasavvur qilish bilan ham bog‘liq. Idrok qilinadigan narsa-hodisalar oqibatlari ham kishida turli

emotsiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, “*Ali Qushchining qalbini hazin kuyday tiniq bir mung chulg‘ab oldi. Bu mung, bu hazin kuy, dilining eng nozik torlarini ohista chertib, ko‘nglida qandaydir, xasta, notavon hislar qo‘zg‘atdi. Go‘yo bu yorug‘ dunyoda yolg‘iz qolgan, hamma undan yuz o‘girgan, hamma uni tashlab ketgan edi*” (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”). Ushbu matnda bir umrlik maskani madrasani tashlab ketishga majbur bo‘layotgan allomaning his-tuyg‘ulari ifodalangan. Alloma go‘yo bu yorug‘ dunyoda o‘zini kimsasizdek his etadi. Ushbu o‘xhatish konstruksiyasi orqali tushkun kayfiyatli holat ifodalanganligini kuzatish mumkin. Madrasadan ketish hissiyot egasi uchun bu yorug‘ dunyoda hech narsasiz qolganlikni, orzu-umidlari chilparchin bo‘lgan kishi idrokining natijasi sifatida vujudga kelgan. Yoki “*Mulla Fazliddin Xonzoda beginning iliq so‘zlariga javoban yana bir ta‘zim qildi-da, yerga qarab, xuddi qilichning tig‘i ustidan yurib borayotganday ehtiyyot bo‘lib gapira boshladi*” (P.Qodirov. “Bobur”) gapida podshoh qiziga yaqinlik boshqalar tomonidan sezilganda nimalar yuz berishidan qo‘rqan Mulla Fazliddinning hissiyotlari (qilichning tig‘i ustidan yurganday) o‘xhatishi orqali yorqin ifodalangan.

XULOSA. Umuman olganda, o‘xhatishlar yordamida xursandchilik, qo‘rqinch, tushkunlik, xafachilik, ta‘sirlanish, uyalish, noumid bo‘lish, hayajonlanish, achinish, holsizlanish, xavotirlanish, jahllanish va boshqa ruhiy holatlar ifodalishini kuzatishimiz mumkin. Bu hol inson ruhiy holatini ifodalashda qiyoslashning muhim turi bo‘lgan o‘xhatishlardan keng miqyosida foydalish mumkinligini ko‘rsatadi. ZOTAN, o‘xhatishli matnlar inson olamini yorqin gavdalantiruvchi va insonning o‘ziga ham kuchli ta’sir etuvchi ifoda usullaridandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эргашева Д. Одил Ёкубов асарларида инсон руҳий ҳолати ифодаланиши лисоний манзараси.— филол. фан. фалс. док. дисс. – Термиз, 2022.
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1976.
3. Худойберганова Д. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015.
4. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшикларининг лингвопоэтик хусусиятлари: филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2005.